



INTELLEKT

2022-YIL – INSON QADRINI
ULUG'LASH VA FAOL
MAHALLA YILI

IJTIMOYIY-TA'LIMIY, MADANIY-MA'RIFIY GAZETA

2020-YIL 2-SENTABRDAN CHIQA BOSHLAGAN

2022-YIL, 1-IYUL № 12 (44)

E-MAIL: INTELEKTPRESS@UMAIL.UZ

MILLIY QONUNCHILIK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR – BOSH QOMUSIMIZ MISOLIDA



Bugungi shiddat bilan kechayotgan globallashuv jarayonlari hozirgi kunga kelib insoniyat oldiga bir qancha muammolarni qo'ymoqda. Ayniqsa, rivojlanish yo'lidagi har bir milliy davlatning boshqaruvi tizimini isloh qilishga ehtiyoj tug'dirmoqda. Shu ma'noda, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularga barcha shart-sharoitlarini, farovon yashash imkoniyatlarini yaratib berish muhim ahamiyatga egadir.

Barhamizga ma'lumki, mamlakatimizdagi siyosiy partiyalar tashabbusi bilan Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalasi jamoatchilik hukmiga havola etildi. Ushbu tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komis-

siya tarkibi shakllantirildi. Hozirgi kunda Konstitutsiyaviy komissiya o'z ish faoliyatini amalga oshirish jarayonlarida fuqarolarning takliflari, fikr-mulohazalarini o'rganib, Bosh qomusimizni takomillashtirish bo'yicha ishlarni jadal olib bormoqda.

Global o'zgarishlar davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, jahonning ayrim mintaqalarida tobora kuchayib, ildiz otib borayotgan ma'naviy tahdidlar xavfidan xalqimiz ma'naviyatini asrash barobarida uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini yot mafkuralar ta'siridan himoya qilish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Zero, ma'naviy va ijtimoiy hayotimizning mazmun-mohiyatini qamrab olgan davlatimizning yangi rivojlanish siyosatiga daxldorlik hissi har bir fuqaroning o'z burchlari oldida sobitqadam bo'lishga undaydi.

Bugungi kunga kelib davlatning rivojlanishini belgilab beruvchi huquqiy asos bu Konstitutsiyadir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi suveren davlat sifatida demokratik rivojlanish yo'lidagi maqomini belgilaydi. Qisqa davr ichida mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish sohasida juda ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida "Mustaqil va suveren davlat sifatida rivojlantirishimizning mashaqqatli va sharafliligi yo'lida erishgan barcha yutuqlarimizni, eng avvalo, Konstitutsiyamiz bilan bog'lashimiz, albatta, bejiz emas... Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora ortib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir", deb ta'kidlangan.

➡➡➡➡ Davomi 2-betda

YOSHLARGA E'TIBOR – KELAJAKKA E'TIBOR!

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidagi ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xaqqlar huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgan ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O'zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida



o'g'on" davlat mukofotlari ta'sis etildi.

Vatanimiz yoshlarining har sohada erishayotgan yutuqlari bilan faxrlansak arziydi. Fan, texnika, sport, madaniyat, ta'lim – barcha jabhada faol yoshlarimiz yurt tayanchi, ertamiz egalardir. Yosh yigit-qizlarimiz uchun yaratilayotgan keng ko'lamdagi imkoniyat va shart-sharoitlar ularning o'qib o'rganishlari, qizg'in faoliyat ko'rsatishlari uchun qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik nafaqat yurtdoshlarimiz, balki dunyo hamjamiyatini ham o'ziga jalb etmoqda. Bu esa o'z navbatida, yoshlarimizning jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirishga, Vatanimiz yoshlari uchun bor kuch-g'ayratlarini safarbar etgan holda o'qib izlanishi, faoliyat yuritishi uchun yanada ruhlantiradi.

Yoshlik – inson umrining kuch-g'ayratiga to'la, cheksiz orzu-umidlari va yangi-yangi g'oyalarga boy davri. Yoshlar dunyoga yartuvchanlik nigohi bilan boqishadi. Aynan mana shu kabi shijoatli yoshlarni qo'llab quvvatlash uchun yurtimizda juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yurtimizda turli sohalarida yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan hamda har jabhada faol va izlanuvchan yoshlarni rag'batlantirib berish maqsadida "Kelajak bunyodkori" va jonkuyar yosh yigitlar uchun esa "Mard

da. Bu esa o'z navbatida, yoshlarimizning jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirishga, Vatanimiz yoshlari uchun bor kuch-g'ayratlarini safarbar etgan holda o'qib izlanishi, faoliyat yuritishi uchun yanada ruhlantiradi.

➡➡➡➡ Davomi 2-betda

XORIJIIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN QANDAY FOYDALANISH KERAK?

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidagi barcha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim shartlaridan biri esa kadrlar tayyorlash tizimini mukammal bo'lishi va shaxsning har tomonlama rivojlanishidir. Ta'lim sohasida bo'layotgan har bir o'zgarish jamiyatimiz ravnagiga jobjoy ta'sir qilishga shubha yo'q. Mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, davlat ta'lim standart talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo'lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish – o'quvchi faoliyatining ta'lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim o'rtirish asosi hisoblanadi. Ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda, avvalo, o'quvchilarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyoj shakllantirish lozim. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar innovatsion texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishning sabablardan biri shu vaqtgacha a'nanaviy ravishda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallash-



ga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyada esa ularni egallayotgan bilimlarni o'zlarini qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto, xulosalarni o'zlarini keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy mezoniga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoyat kattadir.

Pedagogik faoliyatda «metod», «metodika» va «texnologiya» tushunchalari keng qo'llaniladi. Hatto, mazkur tushunchalar

mohiyatini tavsiflashda xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, mutaxassislar o'rtasida ham ko'pgina tortishuv, baxs-munozaralarga sabab bo'lib kelmog'unda. Ammo adabiyotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni umumlashtirish orqali tushunchalarning aniq ta'rifini shakllantirish mumkin. Muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lim metodini hosil qiladi. Hukumatimizning "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ingliz tilining O'zbekiston aholisi o'rtasida ommalashishiga zamin yaratdi. Mazkur qaror chet tillarni o'qitish tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasida tashkil etishni nazarda tutadi. Qisqa fursatda chet tillar bo'yicha mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat standartlari ishlab chiqildi, ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar belgilandi. Ingliz tilini o'qitishda juda ko'p takliflar mavjudligini inobatga olsak, "Siz qaysi metod bo'yicha dars berasiz?" degan savol yanada dolzarblashib, intellektual mahsulot iste'molchilari darajasining o'sganligi namoyon bo'ladi.

➡➡➡➡ Davomi 3-betda

YANGI O'ZBEKISTON – YANGI MAQSADLAR: UCHINCHI RESSANS



«...Xalqimizning qudrati, salohiyati to'la ro'yobga chiqayotgan bugungi kunda O'zbekistonda yangi uyg'onish davri – uchinchi Rensans poydevoriga asos solinmoqda.

Axir bugungi O'zbekiston kechagi O'zbekiston emas va bizning xalqimiz

Sharqdagi uyg'onish davri va Markaziy Osiyo

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasini takomillashtirish, ayniqsa, ilm-fan va ta'lim vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

➡➡➡➡ Davomi 3-betda

Xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimi o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol avlod sifatida tarbiyalanishi va ularning salomatligini mustahkamlash, maktab o'quvchilarining yozgi ta'lim davomida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida AQShning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda Samarqand davlat chet tili instituti bazasida "Samarqand–USA English Camp – 2022" nomli yozgi oromgoh tashkil etildi.

Ingliz tiliga ixtisoslashgan yozgi oromgohdan ko'zlangan maqsad, xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanilgan holda intensiv muhitda ingliz tilini mahalliy va xorijiy mutaxassislar ishtirokida o'zlashtirish, axborot kommunikatsion texnologiyalar borasidagi bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilarda musiqa va raqs qobiliyatlarini shakllantirish, sport va sog'lomlashtirish to'garaklarini tashkil etishdan iborat. Shuningdek, oromgoh doirasida turli xil ko'ngilochar mashg'ulotlar, iste'dodlar shouleri, quvnoqlar va zukklar, she'rxonlik va teatr tomoshalari kabi bir-birini to'ldiruvchi turli tadbirlar tashkil etish

orqali o'quvchilarning turli sohalaridagi qobiliyatlarini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlash nazarda tutilgan.

Yozgi oromgohda respublikamizdagi barcha viloyatlar umumta'lim maktablarining 9-10-sinf o'quvchilari va akademik litseylarining 1-kurs talabalarini ishtirok etish mo'ljallandi. Ariza bilan murojaat qilgan 2400 nafardan ortiq nomzodlar orasidan 150 nafar iqtidorli yoshlar saralab olindi va ular bir oy davomida yozgi oromgohda bepul ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritishdi. Saralash jarayonida o'quvchilarning ta'lim muassasalarida olgan baholari, erishgan yutuqlari, ingliz tilidan bilim darajasi, ingliz tilida insho yozish, muammoli vaziyatlarda mustaqil ravishda g'iri qarorlar qabul qila olishi kabi mezonlar asoslanib, hududlarga ajratilgan kvotalar doirasida tanlab olindi.

Yozgi oromgoh 2022-yil 14-iyundan 15-iyulgacha bo'lib o'tishi rejalashtirilgan. Barcha ishtirokchilar yozgi oromgoh loyihasi doirasida Samarqand davlat chet tili instituti talabalar turar joyiga joylashtirilib,

AYOLLARGA E'TIBOR

Ayol jamiyat gultoji, mehr va go'zallik timsolidir. Ularning jamiyatdagi rolini oshirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Aynan ularning manfaatini fodalovchi va himoyalovchi qator huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ayollarga ko'plab imtiyozlar joriy qilindi.

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafollatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga asosan barcha vazirlik va idoralarda gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashlari faoliyati tashkil etildi. O'tgan yildan boshlab davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ijtimoiy huquqga muhtoj qizlarning bilim olish imkoniyatlari yanada kengaytirilib, oliy ta'lim muassasalariga 4 foizli davlat grantlari ajratildi.

Mazkur yangi tizim asosida 2020-yilda 950 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj qiz o'qishga qabul qilindi. Yana bir jihati 2020/2021 yilning o'tgan davri davomida 166,3 ming nafar xotin-qiz doimiy ishga joylashtirildi. 31,1 ming nafar kasbga o'qitildi, 48,4 ming ishsiz ayolga ishsizlik nafaqasi tayinlanib, ijtimoiy muhofazaga olindi. Ming afsuski, qizlar va ayollar

huquqini ham shaxsiy, ham ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydigan erkaklar soni kam.

Ular qizlar va ayollarning ta'lim olishi hamda ishlashini istamaydilar. Jamiyatimizda shunday kishilar ham borki, ayollarini to'liq nazorat qilish, hatto urish normal holat deb hisoblaydi. Uy sharoitida zo'rvonliklar asosan sifatsiz ta'lim sabab bo'lgan past iqtisodiy ko'rsatkichli oilalar boshiga to'g'ri keladi. Shu jumladan, ayollarga nisbatan zo'rvonliklar ayolning iqtisodiy yetishmovchiligi tufayli yuz beradi.

Shuni aytish lozimki, dunyodagi davlatlarning kam qismi ayollarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish borasidagi qonunlarni qabul qilgan. Bu borada O'zbekiston "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi va "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafollatlari to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilgan sanoqchi davlatlar qatoriga kirdi. Bu qonunlar davlat va boshqa tegishli tashkilotlarni ayollar zo'rvonligiga qarshi kurashish va ularga barham berishga chaqiradi.

➡➡➡➡ Davomi 2-betda

"SAMARKAND-USA ENGLISH CAMP – 2022" YOZGI OROMGOH TASHKIL ETILDI

sanitariya va epidimiyologiya talablariga javob beradigan institut oshxonasida 4 mahal issiq ovqat bilan ta'minlanmoqda.

Yozgi oromgoh davomida o'quv mashg'ulotlari va to'garaklar mahalliy hamda xorijlik mutaxassislar tomonidan zamonaviy hamda innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda olib borilmoqda. Dars jarayonlari bilan bir qatorda o'quvchilar bilimlari mustahkamlash to'garaklari, musiqa, rassomchilik, sport mashg'ulotlari va bellashuvlar, turli xil ko'ngilochar tadbirlar hamda Samarqand shahrining diqqatga sazovor joylari va tarixiy obidalarga sayohatlar tashkil etilmoqda. Yozgi oromgohda yaratilgan sharoitlar

hamda oromgoh faoliyatidan barcha ishtirokchilar va ularning ota-onalari mamnun bo'lishmoqda.

Otabek YUSUPOV, SamDCHTI Ingliz tili II fakulteti dekani.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORIOMMAVIY AXBOROT VOSITALARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA JURNALISTIKA
SOHASINI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish, ular faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kadrlar salohiyati va raqobatbardoshligini yanada oshirish, jurnalistika sohasini rivojlantirish maqsadida:

1. Belgilab qo‘ylsinki:
a) 2022-yil 1-iyuldan boshlab 2025-yil 1-iyulgacha qadar:

ommaviy axborot vositalari foyda solig‘ini belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foiz kamaytirilgan soliq stavkalari bo‘yicha to‘laydi, reklama xususiyatiga ega bo‘lgan ommaviy axborot vositalari bundan mustasno;

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxat bo‘yicha olib kiritiladigan matbaa uskunalar, zamonaviy foto va radiotelevizion uskunalar hamda qo‘g‘oz bo‘xona bo‘jidan ozod etiladi;

b) 2023-yildan boshlab tegishli davlat organlari va tashkilotlari hamda boshqa muassasalarga 110 nusxa davriy bosma nashrlar va 67 nusxa kitob mahsulotlarining majburiy bepul nusxalarini yuborish amaliyoti bekor qilinib, ular tomonidan bosma mahsulotlarni xarid qilib olish tartibi joriy qilinadi (Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi bundan mustasno). Bunda, tegishli davlat organlari tomonidan xarid qilib olish uchun Davlat budgetdan mablag‘ ajratiladi;

v) budget tashkilotlariga ulardagi “kutubxona fondi” xarajat muddasi orqali davriy bosma nashrlar, ularning elektron shakli va elektron ommaviy axborot vositalariga obuna bo‘lish uchun mablag‘ yo‘naltirishga ruxsat beriladi.

2. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq 2022-yil 1-oktabrdan boshlab bolalar uchun mo‘ljallangan tele- va radiomahsulotlarni ishlab chiqarish va efiinga uzatish bo‘yicha har yili eng yaxshi 30 ta loyiha uchun har biri bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravarigacha miqdorda bo‘lgan tanlov e‘lon qilinadi. Bu boradagi xarajatlar Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga qo‘shimcha ajratiladigan Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

3. Faol jurnalistlarni muntazam rag‘batlantirish va ular o‘rtasida ijodiy sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida har chorakda:

ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan 100 tagacha eng yaxshi material uchun mualliflar (ijodiy guruh a‘zolari) quyidan yuqoriga o‘sb borish tartibida bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha miqdorda pul mukofoti bilan taqdirlanadi;

amaliy va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan 100 tagacha eng yaxshi tegishli materialni tayyorlash va ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilish uchun davlat grantlari va davlat ijtimoiy buyurtmalarini berish bo‘yicha tanlov e‘lon qilinadi.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A.A. Xodjayev) eng yaxshi

materiallarni keng jamoatchilik va malakali mustaqil ekspertlar tomonidan ochiq va shaffof usulda elektron aniqlash tizimi – maxsus elektron platformani ishga tushirsin.

Belgilansinki, ushbu bandeda nazarda tutilgan loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasining axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqablanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

4. 2023-yildan boshlab jurnalistlar o‘rtasida har yili an‘anaviy o‘tkazib kelina-yotgan “Oltin qalam” milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovni demokratik tamoyillar asosida yanada ochiq va shaffoflik bilan o‘tkazishga e‘tibor qaratilsin, shuningdek, “Oltin qalam” milliy mukofoti sovrindorlari: bosh milliy mukofot uchun – avtomobil; birinchi o‘rin uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari;

ikkinchi o‘rin uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 175 baravari;

uchinchi o‘rin uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravari;

12 ta rag‘batlantiruvchi nominatsiya-niing har biri uchun – bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlansin.

Belgilansinki, “Oltin qalam” milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovni o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar “Ilhom” jamoat fondi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

5. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

a) barcha davlat organlari va tashkilotlari o‘z muassisligidagi davriy bosma nashrlarning zamonaviy elektron shakli, shu jumladan, mobil ilovalari tegishli davlat organlari va tashkilotlariga 2022–2024-yilda ajratilgan Davlat budgeti hamda ularning budgetdan tashqari mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqablanmagan boshqa manbalar hisobidan yaratilishini tashkil etadi, keyingi yillarda ularni modernizatsiya qilish uchun mablag‘ ajratib boradi;

b) 2023-yil yanvardan boshlab:

davlat organlari va tashkilotlari muassisligida bo‘lmagan hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kamida ikki yil bo‘lgan davriy bosma nashrlarning zamonaviy elektron shaklini, shu jumladan, ularning mobil ilovalarini yaratish hamda modernizatsiya qilish va bir yil davomida yuritish xarajatlarni qoplash uchun 2026-yil 1-yanvargacha qadar har yili eng yaxshi 20 ta loyiha bo‘yicha tanlov e‘lon qilinadi. Bunda, har bir tanlov uchun O‘zbekiston Respublikasining axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha bo‘lgan miqdorda mablag‘ ajratiladi;

davriy bosma nashrlar, kitob va boshqa matbaa mahsulotlariga masofadan turib obuna bo‘lish va ularning buyurtmachigacha o‘z vaqtida yetkazib berilishini kuzatib borish imkonini beradigan “Obuna” yagona elektron platformasi, shu jumladan, uning mobil ilovasi yaratiladi;

2026-yil 1-yanvargacha qadar jismoniy shaxslar tomonidan “Obuna” yagona

elektron platformasi orqali obuna qilingan ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, adabiy-badiiy, huquqiy, ilmiy-ommabop davriy bosma nashrlar obuna narxining 10 foiz, bolalar uchun mo‘ljallangan davriy bosma nashrlar obuna narxining 20 foiz miqdori Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan obunachilarning bank kartalariga bir oy muddat ichida qaytariladi (“Cash-back”), reklama xususiyatiga ega bo‘lgan davriy bosma nashrlar bundan mustasno. Bunda, ushbu xarajatlar Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligiga qo‘shimcha ajratiladigan Davlat budgeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi (Sh.X. Shermatov) hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A.A. Xodjayev) 2022-yil yakuniga qadar Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan “Obuna” yagona elektron platformasi, shu jumladan, uning mobil ilovasini yaratish va elektron to‘lov tizimlari bilan integratsiya qilsin hamda uning doimiy ravishda modernizatsiya qilinishi, texnik qo‘llab-quvvatlanishi va faoliyat yuritishini ta‘minlasin.

6. Jurnalistika sohasida kadrlar tayyorlash jarayonini amaliyot bilan integratsiya qilish, kadrlarning malakasini oshirish va jurnalistlarning xorijiy tillarni o‘rganishini rag‘batlantirish maqsadida 2022-yil 1-sentabrdan boshlab:

a) oliy ta‘lim muassasalarida jurnalistika yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim beradigan professor-o‘qituvchilarning mualliflik ko‘rsatuv va eshittirishlari hamda yirik tahliliy maqolalari ularni moddiy rag‘batlantirish nuqtai nazaridan ilmiy maqolaga tenglashtiriladi;

b) ommaviy axborot vositalari tahririylari, nashriyotlar, matbaa korxonalari va axborot xizmatlarida kamida besh yil ishlagan hamda ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalarida dars berayotgan, O‘zbekiston Respublikasining faxriy unvonlariga ega bo‘lgan shaxslar mehnatiga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlariga ko‘ra 1-ilovaga muvofiq professor va dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan shaxslarga tenglashtiriladi;

v) oliy ta‘lim muassasalari rektorlariga jurnalistika sohasi bo‘yicha kadrlar tayyorlash jarayoniga ommaviy axborot vositalarining tanqili va tajribali xodimlarini, sohaning yetuk mutaxassislarini jalb qilish va ular mehnatini oliy ta‘lim muassasasining budgetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qo‘shimcha rag‘batlantirish huquqi beriladi;

g) jurnalistika sohasida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta‘lim muassasalari kafedralarining ixtisoslashtirilgan bo‘limlari 2-ilovaga muvofiq tashkil etiladi;

d) ommaviy axborot vositalarida kamida bir yil davomida asosiy ish joyi sifatida ishlab kelayotgan jurnalistlar va tahririylar xodimlarining: xorijiy tillarga o‘qitish bo‘yicha o‘quv kurslarida o‘qish xarajatlarning 50 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravaridan oshmagan qismi kompensatsiya qilinadi. Bunda, ular xorijiy tillar bo‘yicha B2 va undan yuqori darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos

darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lishi hamda nodavlat ta‘lim tashkilotida o‘qish bilan bog‘liq haqiqiy xarajatlarni isbotlovchi hujjatlarni taqdim etishi lozim;

xorijiy tillar bo‘yicha B2 va undan yuqori darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lish uchun imtihon topshirish xarajatlari to‘liq kompensatsiya qilinadi.

Bunda, ushbu “d” kichik bandeda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasining axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

7. O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi oliy organi qarori bilan O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi O‘zbekiston Jurnalistlari uyushmasi deb qayta nomlangani ma‘lumot uchun qabul qilinсин.

O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 16-uy manzildagi binoga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilsin.

Belgilansinki, 2023–2024-yillarda 50 nafar jurnalist va tahririylar xodimlari xorij mamlakatlariga malaka oshirish, tajriba o‘rganish, stajirovka o‘tash va nufuzli media tadbirlarda ishtirok etish uchun yuboriladi hamda ular uchun xorijlik malakali mutaxassislar jalb etilgan holda o‘quv kurslar tashkil etiladi. Bu boradagi tegishli xarajatlar O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasiga Davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqablanmagan boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari har yili O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasining tegishli hududiy bo‘limlari faoliyatini samarali tashkil qilish, saqlash xarajatlarni qoplash va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun mahalliy budgetning qo‘shimcha manbalari hisobidan belgilangan tartibda subsidiya sifatida mablag‘ ajratib borish choralarni ko‘rsin.

8. Jurnalistlarning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilish tizimini yanada kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasining quyidagilarni uyushma tomonidan amalga oshirish to‘g‘risidagi takliflari ma‘qullansin: jurnalistlar va davlat organlari, jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida yuzaga kelgan nizolarning sudgacha hal etilishiga ko‘maklashish;

jurnalistlarning professional faoliyatiga taalluqli jinoyat ishlari bo‘yicha ish yuritishda ularning jamoatchilik himoyachilari sifatida qonunda belgilangan tartibda ishtirok etish;

tele- va radiokanallarning badiiy kengashlari faoliyatiga jalb qilingan malakali ekspertlarni O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasiga Davlat budgetidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan doimiy ravishda rag‘batlantirib borish.

9. O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi oliy organi qarori bilan O‘zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi O‘zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi deb qayta nomlangani ma‘lumot

uchun qabul qilinсин.

Belgilansinki, O‘zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi tomonidan tavsiya etilgan media loyihalarni amalga oshirish rejalariga muvofiq vazirlik, idora, tashkilot va hokimliklarga ularning budgetdan tashqari mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqablanmagan boshqa manbalar hisobidan shartnoma asosida media mahsulotlar yaratish, ularni realizatsiya qilish hamda boshqa media loyihalarni amalga oshirishga ruxsat beriladi.

10. Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘larini boshqarish bo‘yicha Parlament komissiyasiga ommaviy axborot vositalari uchun grantlar, ijtimoiy buyurtmalarining soni va miqdorini oshirib borish hamda bu borada alohida tanlovlar o‘tkazish tavsiya etilsin.

11. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi (Sh.X. Shermatov) Adliya vazirligi (R.Q. Davletov), Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A.A. Xodjayev) bilan birgalikda uch oy muddatda teleradioeshittirishlarni tarqatish (namoyish qilish) tarmoqlarini loyihalashtirish va qurish, teleradioeshittirishlarni tarqatish (namoyish qilish) tarmoqlaridan foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatish uchun belgilangan davlat boji miqdorini 50 foizgacha kamaytirish hamda uni yil davomida bo‘lib-bo‘lib to‘lashni joriy qilishni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish. Bunda, quyidagilar uchun davlat bojining alohida miqdorlari nazarda tutiladi:

teleradioeshittirishlarni tarqatish (namoyish qilish) tarmoqlarini loyihalashtirish va qurish;

mamlakat miqyosida teleradioeshittirishlarni tarqatish (namoyish qilish) yoki hududiy teleradioeshittirishlarni tarqatish (namoyish qilish);

radioeshittirishlarni tarqatish.

12. Toshkent shahri, Mirobod tumani, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy manzilda joylashgan “Matbuot uyi” bino va inshootlari O‘zbekiston Milliy axborot agentligiga operativ boshqaruv huquqi asosida berilsin.

Belgilansinki, ushbu binoga davriy bosma nashrlarning tahririylari ijara haqi to‘lamasdan (kommunal to‘lovlar va ko‘rsatiladigan boshqa xizmatlar bundan mustasno) joylashtirilishi mumkin.

13. Toshkent shahar hokimligi (J.A. Artikxodjayev) Qurilish vazirligi (B.I. Zakirov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (A.M. Boboyev), Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) bilan birgalikda:

ushbu qarorning 12-bandida keltirilgan bino va inshootlar hamda ularga tutash hududda zamonaviy media shaharcha tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarni

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. Mirziyoyev

Toshkent shahri, 2022-yil 27-iyun
Manba: <https://lex.uz/>

← Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, o‘z navbatida inson huquq va manfaatlari, erkinliklarini davlat manfaatlaridan ustunligini mustahkamlab, O‘zbekiston xalqi uchun munosib hayot sharoitini yaratishga qaratilgan siyosiy bir jarayondir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qonun ustuvorligi, uning barcha fuqarolar uchun tengligi, davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishining huquqiy tamoyili belgilab berilgan. Davlat hokimiyati organlarini mustaqil hokimiyat tarmog‘i sifatida rivojlantirish natijasida davlat hokimiyati organlari o‘rtasida hamkorlik mexanizmlari ishlab chiqarildi.

Konstitutsiyamizdagi “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasini bosqich-bosqich amalga oshirishda huquqiy asos bo‘lib, fuqarolik jamiyati institutlari sifatida siyosiy partiyalarni shakllantirish va rivojlantirish masalalarini, saylov erkinligi kafolatlarini mustahkamlaydi.

2016-yildan boshlab mamlakatimizda yangi bir davr boshlandi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston jamiyati qayta uyg‘ondi, xalqimiz yangicha fikrlash, ishlash va yashashga intila boshladi.

2022-yil 20-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuv o‘tkazib, ushbu uchrashuvda davlatimiz rahbari Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish zaruriyati masalasiga batafsil to‘xtalib, o‘zining bir qator takliflarini ilgari surdi.

Jumladan, muhtaram Prezidentimiz tomonidan bugungi kundagi Konstitutsiyaviy islohotlar o‘zbek xalqining farovonligini ta‘minlash, jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyotiga qaratilgan bo‘lishi lozimligini ta‘kidlab, ushbu islohotni bir nechta yo‘nalishda amalga oshirish kerakligini belgilab berdilar. Masalan:

Inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlari masalasi birinchi yo‘nalish bo‘lib, inson qadriini ulug‘lash

g‘oyasi barcha islohotlar markazida bo‘lishi kerak. Ushbu yo‘nalish doirasida insonga munosib ta‘lim-tarbiya sharoitlarni yaratish, xalq manfaatlarini hamda narsadan ustun g‘oyasini amalga oshirish, gumon qilinuvchining huquqlari, “Miranda qoidasi”, Xabes Korpus institutini yana rivojlantirish, xususiy mulk himoyasi, insonning mehnatga va munosib hayot sharoitlariga, ishsizlikdan himoyalalanishga, kambag‘allikni qisqartirish, homiadorligi yoki yosh bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqablanishi kabi bir qator konstitutsiyaviy islohotlar;

Ikkinchi yo‘nalishda tabiatdagi global iqlim o‘zgarishlari, Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq vaziyatning tobora keskin tus olayotgan ekologik xavfsizlik masalalariga qaratilgan bo‘lib, o‘z ichiga mansabdor shaxslarning tabiat himoyasi uchun mas‘uliyatini keskin oshirish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, davlatning erkaklar va ayollar, oilalar va bolalar, yoshlar va nuroniyalar,

MILLIY QONUNCHILIK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR - BOSH QOMUSIMIZ MISOLIDA

nogironligi bor shaxslar, mamlakatda yoki uning tashqarisida bo‘lishidan qat‘iy nazar, barcha insonlar haqida qayg‘urish, ta‘lim, ilm-fan va inson kapitalini rivojlantirish, bog‘cha, maktab, oliy ta‘lim va ilm-fan sohalarini ustuvor taraqqiy ettirishni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yish, davlat maktabgacha ta‘lim, maktab va oliy ta‘lim tizimini, turli mulk shakllidagi, jumladan, xususiy ta‘lim muassasalarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratib berish, pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga aralashish, ularning xizmat majburiyatlarini bajarishga to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmaskli kabi bir qator konstitutsiyaviy islohotlar;

Uchinchi yo‘nalishda erkin va adolatli fuqarolik jamiyati rivojlani-shi bilan bog‘liq masaladir. Ushbu yo‘nalish doirasida mahallaning maqomini hamda davlat organlarining bu boradagi vazifalarini asosiy qonunimizda aniqlab belgilab qo‘yish, mahallaning davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi, joylardagi mahalliy ahamiyatga molik masalalarni mustaqil hal etish bo‘yicha vakolatlari alohida belgilanishi zarurligi;

To‘rtinchi yo‘nalishda O‘zbekistonda insonparvar, demokratik huquqiy davlat qurish masalasidir. Unga ko‘ra, “O‘zbekiston – huquqiy davlat” degan g‘oyani Konstitutsiyamizda aniql mustahkamlab qo‘yish, Konstitutsiyaga davlat organlari faoliyatida ochiqlik,

shaffoflik va ishoddorlikni, mazkur organlarning ixcham va tejankor bo‘lishini ta‘minlash yuzasidan qoidalar kiritish, Hukumatni shakllantirish va uning samarali faoliyat yuritishini ta‘minlashda Oliy Majlisning vakolatlarini kengaytirish, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarini tayinlash bo‘yicha farmon Senat tomonidan tasdiqlanishi, korruptsiyaga qarshi kurash bo‘yicha yillik milliy ma‘ruzani muhokama qilish masalasini parlamentimiz vakolatiga kiritish, Oliy Majlisning parlament nazoratini amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarning konstitutsiyaviy asoslarini kuchaytirish, Prezidentning ayrim vakolatlarini Oliy Majlisga o‘tkazish, bola manfaatlarini himoya qilish, nogironligi bo‘lgan insonlarning huquq va manfaatlarini belgilab qo‘yish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, barcha davlatlar bilan tinchlikparvar va do‘stona siyosat yuritish, tashqi siyosatda inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish kabi dolzarb masalalarning yechimi borasidagi takliflar berildi”. Davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish

MILLIY QONUNCHILIK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR - BOSH QOMUSIMIZ MISOLIDA

kiritish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya a‘zolari bilan uchrashuvda keltirib o‘tgan konstitutsiyaviy islohotlar takliflari mohiyatini bugungi kundagi globalashuv jarayonlari kontekstida tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu takliflarning samarasi benihoya ijobiy bo‘lishiga shubha yo‘qdir.

Shu bilan birga, ushbu takliflarni ham qo‘shimcha qilishni lozim, deb hisoblaymiz:

Birinchidan, o‘zbek oilalarida ayollarning e‘zozlanishi milliy va diniy qadriyatlariga borib taqaladi. Konstitutsiyamizning 63-moddasida oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarining ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi degan norma mavjud. Mazkur moddaga nikoh erkak va ayolning qonuniy ittifoqidir deb kiritish maqsadga muvofiqdir;

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida aholini, ayniqsa, yoshlarni sog‘lomlashtirish borasidagi nikoh va oila instituti doirasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Bosh qomusimizning 64-moddasida ota-onalar farzandlarini voyaga yetqunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar deb belgilab qo‘yilgan. Ushbu moddaga qo‘shimcha tarzda boqish, tarbiyalash va ta‘lim berishga majburdirlar deb kiritish lozim;

2023–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish;

ushbu loyiha bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun 2022–2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida iqtisod qilingan va o‘zlashtirilgan mablag‘lar hisobidan yetarli miqdorda mablag‘ ajratish choralarni ko‘rsin.

Zamonaviy media shaharcha loyihasi yakuniga yetkazilganiga qadar O‘zbekiston Milliy axborot agentligi o‘z faoliyatini Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buyuk Turon ko‘chasi, 42-uy manzildagi joylashgan binoda davom ettirsin.

14. 2022–2023-yillarda ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash hamda jurnalistika sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari rahbarlari dasturda belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun shaxsan mas‘ul ekanliklari ko‘rsatib o‘tilsin.

15. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A.A. Xodjayev) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-avgustdagi “O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ–3184-son qarori 2-bandining uchinchi xatboshisidagi, 5-bandining ikkinchi xatboshisidagi, 40-bandidagi hamda qarorga 1-ilovaning o‘n beshinchi xatboshisidagi tegishli kelishidagi “Jurnalistlar ijodiy uyushmasi” so‘zlari tegishli kelishidagi “Jurnalistlar uyushmasi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi “O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3195-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanсин.

18. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas‘ul va shaxsiy javobgar deb O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abdulkimov hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori A.A. Xodjayev belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas‘ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o‘rinbosari – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot kotibi Sh.I. Asadov zimmasiga yuklansin.

NAVOIY (NOVEL)

ILK BOR O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA

ILHOMJON TO'XTASINOV, SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI REKTORI, PROFESSOR

(Davomi. Boshlanishi oldingi sonlarda)

– We need to torture him, – he said. Husayn Boyqaro hesitantly mumbled:

– I tried, but let his life not tolerate damage. Nizomumulk winced.

A few months later the couch Palace Jahon oro began questioning, being attended by many lords, nobles, courtiers and others. Crimes of Muhammad Barlos and his son remained unproven and they were released; as a defendant from jail Majiddiddin was alone in chains.

The former vizier was hunched and thin, his hair and beard were gray. After the official questioning Nizomumulk signaled. Clerks and petty officials, who worked under the command of Majiddiddin, one after another began to go to the middle of the room and denigrate him. In their words the truth mixed with exaggerations, accusations contradicted one another. In the end, Majiddiddin was forced to take care of all charges and the interrogation ended. Shortly thereafter, Nizomumulk said to Majiddiddin, that by paying a large amount of money he can achieve liberation. Majiddiddin agreed and sold the remainder of his property and land and as designed with Nizomumulk, the former vizier remained poor.

After all tests he could not stay at home. His possibility was a new unexpected attack by Nizomumulk.

One evening in the old house, where he now had to live with the family, Majiddiddin met with Togonbek. They had a long conversation over the flickering flame of a candle. Majiddiddin remembered his life, howing his case. Finally, he said with deep sadness:

– The biggest mistake in my life was my feud with Alisher Navoiy. More than twenty years ago I started to act against Alisher. You know, honestly if Alisher entered.

– It's true, – said Togonbek and lowered his head. – Alisher knows tricks. He is a very honest man.

– Yes, – agreed Majiddiddin, sighing. – In anger, he is sincere and sincere pity. Always sincere. What can you do – time is missed, errors cannot be corrected.

Togonbek tried to console Majiddiddin. Afraid to disappoint his former patron, he cautiously hinted his willingness to help Majiddiddin with money. They should talk about much, but the time was late. Togonbek apologized and stood up. Majiddiddin stood up and hugged Togonbek:

– Goodbye, my friend, my brother... It's hard to say whether we will meet again.

Togonbek looked at him.

– I'm going on a pilgrimage. Leaving at dawn they all were ready for the journey. If you can, sometimes visit my family, I will be very happy in this life and in that, my brother, my dear friend, – tearfully said Majiddiddin.

– Is it decided? – asked excitedly Togonbek.

– Resolved, – answered with a sigh Majiddiddin. Togonbek embraced him still being in paradise.

– I wish you a safe journey! – he said and disappeared in the darkness.

CHAPTER XXXI


Although winter's long night recently dropped its dark veil, it reigned in profound silence of Unsiya. Candles in all rooms were burning. In one of them few poets, headed by Asif led a lively conversation, in the other – the scribes copied books, in an adjacent room Sheikh Sahib Daro sat frowning at the chessboard.

Navoiy, after evening prayers went around the library, then went to his room. Taking off candlestick from the shelves, he knelt on a low bench covered with a small carpet. He decided to end the "Assembly of celebrities."

Taking a pen, he wrote on the paper, confiding his thoughts and feelings.

"Meeting celebrities" was a bunch of

flowers of creativity of several hundred poets. Navoiy recalled poets and poetry scholars involved, the inhabitants of Khorasan and Maverannakhr, being still alive or those who permanently closed his eyes. He had known many of them and he exchanged correspondence with the most. Among them were both friends and enemies, but Navoiy talked about their lives, characters, abilities, strengths and weaknesses quite impartially. Few words about the poet's life, another few about his character as a man and few ones was an



assessment of his work. Countless manifestations of human nature - bright, dim, colorless dark - came to life in front of Navoiy. An interesting shapes and the vile, pathetic and funny images reflected in the mirror of his imagination! Sometimes the face of Navoiy flashed with a smile; poets, artists, scientists, good or bad, smart or stupid – all they owned the word. Therefore, about each of them he had to say something in that book.

Surrounded by thoughts Navoiy did not notice as the night fell. He put the kalam down. His fingers ached. Leaning against the wall, the poet bowed his head and sank into deep thought. He remembered the patient Jami. His heart trembled. When Jami visited him, he was disturbed by his condition.

"We had him hand in these rights",

– thought Navoiy.

The concern possessed him so much that he decided to go himself. He rose from his seat, blew out the candle. The cold wind stung at the face and was clinging his clothes. The sky was dark and gloomy. Far away, in the square, the bonfires of watchmen and nukers were darkening the night. Somewhere he heard sounds of ringing lute and chang. The voice singing his ghazal was set to music. Several drunken young men came out of the narrow alley and hid behind the wall of the madrassah; Navoiy heard familiar voices of young poets.

Before the gates and brightly lit yard of Jami Navoiy saw people, scurrying anxiously. They were relatives of Jami, his friends and family... Navoiy entered the house. The friends of the sick man were standing beside him. Son of Jami, Ziyoddin Yusuf, sat at his feet and his father looked swollen from weeping eyes. Navoiy sank to his knees in front of the patient and, leaning his face, uttered few words of love and sorrow. Alas, the eyes of the wise man were not open. Jami was unconscious. Navoiy sadly looked at the doctor Abdulhay, skillful doctor just shook his head helplessly. Alisher's feet was shaking, tears were streaming from his eyes. He with fatherly love stroked the head of Ziyoddin. None of those present could hold, all wept bitterly.

Jami briefly regained consciousness, then again lost it. Navoiy did not leave the patient's bedside. Giyosiddin Dehdor continuously read the Koran over him. Then he started carrying out some

manners of Nakshbandiy.

The next day, the situation deteriorated for Jami and soon ended with a death in his arms. For the funeral they were going to fly to Herat. Great poet and Sheikh had to be solemnly interred near the tomb of Sadaddin Kashgar.

On the seventh day after the death of Jami, Navoiy arranged a memorial ceremony. Thousands of people were handed out treats. Poets read poems dedicated to Jami

In the evening Navoiy felt tired and went home. He felt orphaned. The poet recalled with pain his friends kidnapped by the hand of death, sadly thinking about the eternal struggle between life and death. Like a wounded eagle with mighty wings was beating itself against the rocks, looking for a safe heaven for himself, his mind trying to find a safty in home.

So thinking all of these he wrote one ghazal which meant the following in English:

How not to drag me to the wine, when the heart of oppression

And he fought me swarm disasters and worries.

Look at the world. How to solve all the mysteries of nature

The more you look, the stronger the confusion grows

In essence the sun and the beam and the atom beam in

Partly, perhaps, my mind will find the way;

But as my coming to understand the world and how to understand the care?

What to believe, where to learn that we are waiting for he coffin.

I got into science, but they have not found the answer–

Support of faith is not removed from my soul burdens.

Seeking a clue being, doubt ill,

In vain I was friends with many people from year to year

Tabib not cured me, and helped me sheikh

Mentor taught me a feast, but not helped and that.

All his commandments I religiously performed,

But my illness burned me, and still burns.

Exhausted my patience, my unbearable burden,

And there is no way back to me, and there is no way forward.

In potatory house I trudged, confused and lonely.

Wines I ask, and in the hands of a broken crock.

These thoughts were born of inspiration, most of them suited to the present mood of the poet. With regard to the truths before which worshiped hundreds of years, this view seemed most reasonable, although the question – the father of philosophy and the conductor to the truth, the idea could not elect its permanent home – told Navoiy to himself.

Hearing the voice of Sheikh Bahul, who asked for permission to enter, the poet raised low bowed head. His trusted servant placed before him few folded different pieces of paper and left. Navoiy moved a candle and began to view the paper. They were requests o n the help by two students who came from Bukhara and Samarkand, and letters of burdened years by a widow of one of the poet describing his plight, the complaints of farmers and craftsmen about tax collectors to headmen of villages and rulers dogs.

In one familiar letter the master-builder requested for protection from the prince Abdulmuhsin Mirza, who tried to dishonour his family. Navoiy reread his complaint and shook his head in disgust.

(Davomi keyingi sonda)

YANGI O'ZBEKISTON – YANGI MAQSADLAR: UCHINCHI RENESSANS

Boshlanishi 1-betda

Xalqimizning tarixi, xarakteri, mentaliteti, azaliy qadriyatlarini, orzu-umidlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan intellektual boylik e'zozlanadi. Prezidentimizning hayotiy tamoyili – "Dunyoda eng katta boylik yoshlikda olingan bilim va kasbdir".

Tarixiy misollarga murojaat qilaylik.

Buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino to'rt yoshida Qur'onni yoddan o'rgangan. Dunyodagi eng buyuk allomalardan biri va hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy 11 yoshida ustoz ad-Doxiliyning yozgan risolalarining xatolarini tuzatgan. Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy olti yoshidan she'r yoza boshlagan va Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" ("Qush tili") asarini yod olgan. Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur 12 yoshida taxtga o'tirib buyuk imperiyaga asos solgan.

Qanday qilib ota-bobolarimiz dunyoda tan olingan ana shunday yetuk olimlar, shoirlar, mutafakkirlar, ma'rifatparvarlar – bir so'z bilan

chiqib ketish, insonni ulug'lash, iste'dod va aqliy faoliyat imkoniyatlarini ochib berish, adabiyot va san'atda hayot va dunyoviy go'zalik kuyini qizg'in kuyilash, inson erkinliklari uchun kurashda namoyon bo'ladi. Natijada bunyodkorlik va tafakkur qudratini namoyon etuvchi muhtasham san'at asarlari yaratiladi, muhtasham me'moriy inshootlar qurilib, ilm-fan rivojlanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi, shu jumladan, zamonaviy O'zbekiston hududi tarixda ilm-fan, madaniyat va san'atning qadimiy beshigi sifatida mavjud bo'lgan. Bu haqida Islom dini kirib kelishigacha bo'lgan manbalarda ham ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Avesto ma'naviy yodgorligi o'sha davrdagi fan, ta'lim va tarbiya, davlat boshqaruvi va huquqiy saviya haqida o'sha davr uchun ilg'or g'oyalarni ilgari surgan.

O'zbekiston hududlari tarixan Buyuk Ipak yo'li markazi va uning tarmoqlari kesishgan joyda joylashgan. Shuning uchun ham Sharq va dunyoning turli mamlakatlardan ilm olishni istagan kishilar Samarqand, Buxoro, Xorazm,

universitetining tamol toshi o'rta asrlarda qo'yilgani va universitet Madrasai Oliyanning vorisi Mirzo Ulug'bek ekanligini tarixchi olimlar, xalqaro ekspertlar qayd etadilar.

Ushbu madrasalarda tahsil olgan buyuk ajdodlarimizdan 100 mingga yaqin qo'lyozma va litografiyalarni meros qilib oldik. Prezidentimiz tashabbusi bilan so'nggi ikki-uch yil ichida respublikaga yuzlab qo'lyozmalar qaytarildi. Bundan tashqari, ma'rifatparvar ajdodlarimizning ko'plab kitoblari topilib, tegishli ilmiy muassasalarga topshirildi.

Agar biz ushbu qo'lyozmalarni tahlil qila olsak, ularning aksariyati ilmiy asoslanganligini, ya'ni fundamental fanlar: rassomlik, matematika, biologiya, anatomiya va ilohiyot bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda ularning ulkan ilmiy merosi Yevropa va dunyoning boshqa mamlakatlari olimlari tomonidan faol o'rganilmoqda. Bu haqida gap ketganda, 1994-yilda O'zbekiston hukumati va YUNESKO tashabbusi bilan ushbu xalqaro tashkilotning Parijdagi qarorgohida Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi keng nishonlanganini alohida ta'kidlash lozim. Mustaqillikning ilk davrida ilk yirik xalqaro ilmiy anjumanga aylangan ushbu nufuzli tadbir misolida ham buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosining dunyoda yuksak darajada e'tirof etilganiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Bugungi kunda butun dunyoni hayratga solayotgan ajdodlarimizning ilmiy merosi nafaqat millat yoki xalqning, balki butun insoniyatning ma'naviy merosidir. Bebaho boylik kelajak avlodlar uchun donolik va bilim manbai, eng muhimi, kashfiyotlar uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishiga shubha yo'q.

Tarixiy haqiqat shundaki, har qanday mamlakatda jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan olimlar soni O'zbekistonda yetishib chiqqan olimlar soni kabi ko'p emas. Bundan faxrlanishga haqqimiz bor.

Ilk O'rta asrlarda buyuk ajdodlarimizning tarix, geografiya, falsafa, madaniyat va san'at, me'morchilik, davlat va jamiyat qurilishi, huquq sohasidagi buyuk ilmiy g'oyalari va kashfiyotlari, shuningdek, matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, minerologiya, farmakologiya kabi aniq fanlar, tibbiyot, jahon ilm-fani va sivilizatsiyasining rivojlanishida tub o'zgarishlarga hissa qo'shdi.

Jadid ajdodlarimiz ham ziyolilar edilar: ular madrasalarda o'qib, mustaqillik, taraqqiyot va farovonlikka faqat ma'rif, bilim olish, ilm-fanni chuqur o'rganish orqali erishiladi, deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham Mahmudxo'ja Behbudiy: "Maktab dunyo imoratlari ichida eng buyug'idir", – deb ta'kidlaganlar. Afsuski, biz bu boy merosni uzoq yillar davomida o'rgana olmadik, buyuk alloma va mutafakkirlarimiz boshlab bergan kashfiyotlarni mukammallashtira olmadik. Ular doimo ilm-fan, insonparvarlik,

ma'rifatparvarlik g'oyalari yo'lidagi burchlariga sodiq qolganlar.

Ma'rifatli yoshlar – "oltin fondimiz"

2017-yil 20-aprelda Prezident "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi. Keyinchalik qabul qilingan ushbu va boshqa muhim huquqiy hujjatlarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga jiddiy ahamiyat berildi. Shu bilan birga, asosiy maqsad – kadrlar tayyorlash, mamlakati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashdan iborat.

Natijada o'tgan to'rt yil davomida mamlakatimizda 43 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 121 taga yetdi. Bu yil bir yarim millionga yaqin yoshlar oliy o'quv yurtlariga kirish uchun ariza topshirdi. Bu o'ngan yilga nisbatan 40 foizga ko'pdir. Yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi rol o'ynaydigan bog'cha va maktablar tizimida ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Prezident ixtisoslashtirilgan, ijodiyot maktablarini tashkil etish, "zamonaviy maktab" dasturini joriy etishlari doimiy davom etmoqda. Joriy o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarida "tarbiya" fani o'qitila boshladi.

"Maktab – hayot va mamot masalasi, kelajagimiz", – deydi davlat rahbari. Hukumat bu masalani yakka o'zi hal qila olmaydi. Bu butun jamiyatning ishi va burchiga aylanishi kerak. Maktabni ham o'zgartirishdan turib insonni yoki jamiyatni o'zgartirish mumkin emas.

Mashhur fransuz yozuvchisi Viktor Gyugoning "Kim maktab ochsa, qamoqxonalarini yopadi", – degan iborasi bunga oqilona misoldir: Ya'ni, maktab, ta'lim va tarbiya bor joyda bolalar yomon yo'ldan bormaydi va jinoyat qilmaydi. Demak, qamoqxonalariga ehtiyoj qolmaydi. Shu o'rinda O'zbekistonda 11-yillik maktab ta'limini tiklashga alohida e'tibor qaratish lozim. Eng asosiy, mamlakatda uzluksiz "maktabgacha ta'lim – maktab ta'limi – oliy ta'lim" milliy ta'lim tizimi yaratilgan.

So'nggi to'rt yil ichida ijodiy maktablar tashkil etildi: Namanganda – Is'hoqxon Ibrat nomidagi. Jizzaxda – Hamid Olimjon va Zulfiya, Qarshi shahrida – Abdulla Oripov, Marg'ilonida – Erkin Vohidov, Nukusda – Ibrohim Yusupov, Andijonda – Muhammad Yusuf, Gulistonda – Halima Xudoyberdieva, Toshkentda – Abdulla Qodiriy.

Xususan, mamlakatda yaratilgan Prezident maktablari kadrlarning yangi avlodini tayyorlashning muhim tayanichiga aylanishiga shubha yo'q. Chunki bu ta'lim muassasalari iste'dodli bolalarni aniqlash va tarbiyalash, ular bilan ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda dars olib borishning uziyiv tizimi hisoblanadi. Ta'lim jarayonlari rivojlangan mamlakatlarda tajribasi asosida ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlar orqali ingliz tilida olib boriladi.

Iroda NODIROVA, SamDCHTI talabasi.

XORIJIIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN QANDAY FOYDALANISH KERAK?



Boshlanishi 1-betda

Ta'lim bozori to'rt o'qitish bo'yicha har xil turdagi kurslarni taklif etayotgan shiddatli zamonamizda vaqtning o'tingana teng deb bilgan va o'z ishi, o'qishi va biznesini rivojlantirishni o'ylaganlar ko'p hollarda «Ikki hafta ichida ingliz tilini o'rganish», «Samarali ekspress-metod», «Ongosti darajasidagi ingliz tili» va boshqa shu kabi nomlardagi qisqa muddatli kurslarni tanlashadi. Xo'sh, mazkur o'qitish metodlari qay darajada samarali? Ular kutilgan natijani beradimi? Yaqin o'timishda ingliz tilini o'qitishda asosan grammatikaga e'tibor beriladi. O'qish va matnlar tarjimasiga, ba'zan esa bir xillikni biroz bo'lsa-da jonlantirish uchun «topik» larni yod olish hamda diktant yozishga juda ko'p vaqt ajratiladi edi va mazkur jarayon mashaqqatli mehnatni talab etar edi. Bugun til bozorida asosiy taklif iste'molchining talabiga qarab shakllantirilmoqda. Bugungi kunda tilni o'qitish funksionallashib, integratsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida xorij tillari, xususan, ingliz tilini o'rganish yanada dolzarblashdi. Ammo zamonaviy til o'rganuvchilarni tilning tarixi yoki uning nazariyasi qiziqitmaydi. Ingliz tili ular uchun hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lib qoldi.

Hozirda ingliz tilini o'rganayotgan talabalarga bir necha metodlar taklif etilmoqda. Ulardan biri – fundamental metoddir. U kamida 2-3 yillik o'qishni, grammatikani chuqur o'rganishni taqozo etadi. Ushbu metod, asosan, professional tarjimonlarni tayyorlashda qo'l kelib, o'qish yakunida talabalar dunyoga «native speaker», ya'ni til egasining (tashuvchisining) ko'zi bilan qarashga erishadilar. Uning asosida til real va to'liq muloqot vositasi sifatida o'rganiladi. Hozirda fundamental metod o'z maqsadini o'zgartirmagan, ammo boshqa ko'plab metodlar aynan fundamental metod bilan raqobat maydoniga chiqishgan. Tili o'rganish jarayonida eng muhimi uzatlayotgan axborot mazmunining qay darajada to'g'ri ekanligidir.

Talaffuzni yaxshilash uchun darslikka qo'shimcha ravishda «Headway Pronunciation» kitobi ham kiritilgan. Bugungi shiddatli zamonada ingliz tilini o'qitishning ancha ommalashgan yana bir usuli – «intensiv metod» ham amalda. Ushbu metod orqali dars o'tayotgan o'qituvchi asosan, dialoglarni qurol qilib oladi. Intensiv metod orqali ham 2 haftada ingliz tilini o'rganish mumkin emas, ammo mehnatsevar, o'z ustida ishlaydigan talabalar tili 3 oyda bemaol o'zlashtirishlari mumkin. Talabalarga tili o'zlashtirishda yana bir amaliy yordam bu televizor orqali namoyish etilayotgan chet tilidagi ko'rsatuvlardir ya'ni tinglovchi jonli vaziyatda tinglaydi, o'zlashtirgan bilimlarini amalda sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladi. Ular talaba uchun tili yanada tezroq o'rganib olishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiruvchi turki bo'lishi ham mumkin. Bundan asosiy maqsad esa talabalarni bilimlarni o'zlariga egallashlarga yordam berishdan iborat.

Xulosa o'rinda aytish joizki, ma'lumki mamlakatimiz bo'yab turli-tuman o'quv yurtlari bor, shu sababli ulardagi o'qitish maqsadlarini ko'zlab shu o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan alohida chet tili o'qitish metodikasi bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol subektlariga aylantiradi.

Feruza AXMEDOVA, SamDCHTI o'qituvchisi.



aytganda, buyuk insonlar bo'la olishgan? Buning sababi shundaki, ular o'zlarining onglari va kuchlarini ta'limga va fanga bag'ishlaganlar va o'z bilimlarini doimiy ravishda o'tkirlab borganlar. Eng muhimi, ota-bobolarimizning dunyoqarashi bir so'z bilan aytganda "sog'lom" bo'lgan. Ular nafaqat Uyg'onish davrining ne'matlaridan zavqlanishgan, balki jahon sivilizatsiyasi, ilm-fan, madaniyat va san'at rivojiga bebaho hissa qo'shganlar ham.

Uyg'onish davri nima?

"Renaissance" ("Renaans") – fransuzcha so'z bo'lib, qayta tug'ilmog ma'nosini anglatadi. Uyg'onish davrining asosiy belgilari fikrlash va ilmdagi dogmatizm, jaholat va fanatizmdan

Nasaf (Qarshi), Kesh (Shahrisabz), Toshkent, Farg'ona kabi qadimiy madaniyat markazlariga doimo intilib kelganlar. Bu hududlarda qadim-davlat faoliyat ko'rsatib kelayotgan o'quv yurtlari – madrasalar o'z davrining oliy o'quv yurtlari, maqomida bo'lgan.

O'zbekiston yangi Rennessans markazi-ga aylanmoqda

Mamlakatimizda inson tarbiyasiga ijobiy munosabat azaliy an'analar bilan chambarchas bog'liq. IX-X asrlardan boshlab katta va kichik shaharlarda ko'plab maktab va madrasalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Keyingi davrda hozirgi Samarqand davlat

INGLIZ TILIDAN O'ZINGIZNI SINASH UCHUN TESTLAR

1. Choose the correct answer.
... Ben come round, tell him to wait for me.

- A) May
B) Might
C) Could
D) Should

2. Choose the best answer. I didn't know ... him or not.
A) whether to help
B) if to help
C) to help
D) if that I should help

3. Choose the correct answer.
If there is fuel shortage, solar energy ...
A) has to develop
B) will have to be developed
C) will have to develop
D) had to be developed

4. Choose the best answer. ... I was coming here, I met my brother and he was looking for an apartment.
A) as
B) as if
C) in spite of
D) as soon as

5. Choose the correct answer.
Well, it's lucky I saw Mary, then, ...?
A) is it
B) isn't it
C) didn't I
D) did you

6. Choose the correct answer.
The electric light bulb ... by Thomas Edison is extensively used nowadays.
A) is invented
B) was invented
C) invented
D) invents

7. Choose the correct answer.
Father always wishes he ... the teacher job. Because he has to check homework all the time.
A) wouldn't choose
B) didn't choose

C) doesn't choose
D) hadn't chosen

8. Choose the correct answer.
My grandfather told us about ... summer of 1941. At that time he was in ... Crimea.
A) / the
B) a /
C) the / the
D) - /

9. Choose the correct answer.
The manager of the department watched the goods ... in boxes.
A) to pack
B) having packed
C) being packed
D) packing

10. Choose the correct answer.
Coming home early after a party is not in the habit of young people, ... is no surprise at all.
A) which
B) that
C) what
D) so that

11. Choose the correct answer.
... she told us about her country, ... interested we became in visiting it.
A) Whether/or
B) Not only/but also
C) As much/more
D) The more/the more

12. Choose the correct answer.
There's a sweet shop on ... side of the road.
A) other
B) others
C) another
D) the other

13. Choose the correct answer.
... much effort he puts into it, I'm sure he'll never make a success of the business.
A) However
B) Although
C) So

D) Because

14. Choose the correct answer.
... horrible houses those are!
A) What
B) What a
C) How
D) How a

15. Choose the correct answer.
Only when she came so late ... suspicious.
A) did he became
B) became he
C) did he become
D) he became

16. Choose the correct answer.
When we moved to London we soon ... in a big city.
A) used to living
B) got used to live
C) got used to living
D) used to live

17. Choose the correct answer.
Ted and his friend ... by their friends to stay in the country by the time they return.
A) will have been allowed
B) were allowed
C) will have allowed
D) will be allowed

18. Choose the correct answer.
It was my fault. We ... at seven, but I wasn't able to come in time.
A) had to meet
B) were to meet
C) should meet
D) could meet

19. Choose the correct answer.
When I was young, I ... always walk to school in the mornings.
A) would
B) could
C) will
D) did

20. Choose the correct

answer.
Jill seems very tough at work. She's a different person at home, ...

- A) so
B) yet
C) but
D) though

21. Choose the correct answer.
Monica brought some food for the party.
She ... , we have plenty.
A) didn't need to bring
B) doesn't have to bring
C) needn't have brought
D) needn't bring

22. Choose the correct answer.
There was ... noise in our street for me to get a proper night's sleep.
A) so much
B) such a lot of
C) many more
D) too much

23. Choose the correct answer.
... his broken leg, he would probably have been picked for the national team by now.
A) Because of
B) Due to
C) Whereas
D) But for

24. Choose the correct answer.
It is a long time since we ... each other at a wonderful city of Los Angeles.
A) meet
B) have met
C) met
D) are meeting

25. Choose the correct answer.
We ... up the Eiffel Tower while we were in Paris, but we decided to go to the Louvre instead.
A) can go
B) couldn't have gone
C) could have gone
D) could go

26. Choose the correct answer.

Mirror writing, as the term implies, means putting words down on paper in such a way that they ... normally only when the page ... up to a mirror.
A) can be read/is held
B) should be read/holds
C) would rather read/holds
D) have to read/should be held

27. Choose the correct answer.
As far as I remember, it was in China that they first met and got interested in the dam project, ...?
A) don't I
B) wasn't it
C) do I
D) was it

28. Choose the correct answer.
I saw them having air-conditioning ... in their house.
A) install
B) to install
C) installed
D) installing

29. Choose the correct answer.
... its rich resources and productivity, Siberia suffers acute labor shortages ... the unwillingness of most people to endure the region's harsh living conditions.
A) In spite of / because of
B) Unless / in case of
C) In case / since
D) However / so

30. Choose the correct answer.
But for your help we ... in time.
A) hadn't finished
B) would not finish
C) should not have finished
D) didn't finish

Javoblari keyingi sonda.

Zayniddin G'APPROV.

DUNYO XABARLARI

O'ZBEKISTONDA JAHON BANKNING KREDITI KO'MAGIDA BINOLAR UCHUN TOZA ENERGIYA LOYIHASI AMALGA OSHIRILADI



Energetika vazirligi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Energiyaning ta'minoti va energiya ta'minoti bo'limi bilan hamkorlikda "O'zbekistonda binolar uchun toza energiya" loyihasini ishlab chiqdi. U Jahon bankining 143 million dollari miqdoridagi imtiyozli krediti ko'magida amalga oshiriladi. Bu haqda Energetika vazirligi matbuot xizmati xabar berdi.

Loyihani amalga oshirish uchun Jahon banki guruhiga a'zo bo'lgan Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA) O'zbekiston hukumati bilan hamkorlikda past foiz stavkasida, muddati 30 yil, jumladan, besh yillik imtiyozli davr bilan imtiyozli moliyalashtirishni taqdim etadi.

O'zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya manbalari salohiyatini oshirish borasidagi yetakchi mavqei, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlarni xalqaro

hamjamiyatning faol qo'llab-quvvatlashini, shuningdek, energiya samaradorligini oshirish bo'yicha ulkan maqsadlarni hisobga olgan holda, Jahon banki Ijroiya direktorlari kengashi loyihami bir ovozdan qo'llab-quvvatlagan va uni amalga oshirish uchun Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi-ning imtiyozli resurslaridan uzoq muddatli kredit ajratishni ma'qullagan.

Ushbu loyiha O'zbekistonda energiya tejash va energiya samaradorligini oshirishga investitsiyalarni jalb qilish uchun bozor rag'batlarini yaratishda muhim rol o'ynash uchun mo'ljallangan.

Loyiha mamlakatning barcha hududlarini qamrab oladi. Uning doirasida maktabgacha ta'lim, xalq ta'limi va sog'liqni saqlash sohalarida 800 dan ortiq muassasani modernizatsiya qilish rejalashtirilgan.

Loyihaning asosiy natijasi jamoat binolarining energiya samaradorligini oshirish, shuningdek, energiya tejash va toza energiya ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish tartib-qoidalarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishdan iborat bo'ladi.

Avvalroq Energetika vazirligi huzurida Milliy dispetcherlik markazi tashkil etilgan, O'zbekistonda besh oyda umumiy quvvati 1 254 megavatt bo'lgan 6 ta yangi elektr stansiya ishga tushirilishi to'g'risida xabar berilgan edi.

ARZONLASHGAN "TONIROVKA" GA RUXSATNOMA BERISH BOSHLANDI

Bugun, 1-iyuldan avtomobil oynasi tusini o'zgartirishga ruxsatnomani my.gov.uz portali orqali navbatlarsiz olish imkoniyati paydo bo'ladi.

Yagona portal xabariga ko'ra, agar ruxsatnoma portal orqali rasmiylashtirilsa, 10 foizlik chegirma beriladi (2 million 160 ming so'm bo'ladi).

O'zbekistonda 1-iyuldan boshlab mashinalarning orqa yon oynalar tusini o'zgartirish mutlaqo tekin bo'ladi. Bu borada tegishli Prezident qarori e'lon qilindi.

Qarorda aytilishicha, avtomashinalarning orqa yon oynalariga «tonirovka» yopishtirish tekin bo'ladi. Bu borada ruxsatnoma olish tartibi bekor qilinadi. Hozirda bu uchun 1,5 million so'm to'lov qilish kerak.

Mashinaning oldi yon oynalari tusini o'zgartirish esa hamon pulli bo'lib qoladi, ammo narxi olti baravar arzonlashtirilgan. Hozirda old yon oynalar



tusini o'zgartirish uchun 15 million so'm to'lash kerak. Ya'ni faqat barcha yon oynalar tusini o'zgartirish uchun belgilangan BHMning 50 baravari miqdoridagi to'lovni amalga oshirishga orqa yon oynalarni qoraytirish mumkin. 1-iyuldan esa bu to'lov BHMning sakkiz baravari miqdorida, ya'ni 2,4 million so'm etib belgilandi.

2035-YILDAN BOSHLAB YEVROITTIFOQDAGI BARCHA YANGI AVTOMOBILLAR IQLIMGA ZARAR YETKAZMAYDIGAN BO'LADI



Yevropa ittifoqi davlatlari 2035-yildan boshlab yangi avtomobillardan chiqadigan zararli moddalar darajasini nolga tushirishni istamoqda. Yevroparlament esa o'sha yilga qadar ichki yonuv dvigatelli avtomobillar ishlab chiqarishni butunlay taqiqlamoqchi.

2035-yildan boshlab Yevropa ittifoqida sotiladi-

ICHAKLAR MIKROFLORASINI YAXSHILAYDIGAN MAHSULOTLAR

Parhezshunos-shifokorning so'zlariga ko'ra, ichaklar tozalinishi uchun to'g'ri ovqatlanish muhim.

Parhezshunos-shifokor Mixail Ginzburg "Rossiya-1" telekanali efirida ichaklar mikroflorasini yaxshilaydigan mahsulotlarni aytdi.

Mutaxassisning so'zlariga ko'ra, ichaklar tozalinishi uchun to'g'ri ovqatlanish muhim, eng foydali mahsulotlardan biri - bu qora olxo'ri.

"Uning tarkibida juda ko'p miqdordagi oziq-ovqat tolasi bor. U, shuningdek, shish paydo bo'lishining oldini oladi, kuniga 100-150 gramm yeyish mumkin. Unda shakar juda ko'p va, albatta, me'yordan ortiq qora olxo'ri iste'mol qilmaslik kerak", - deydi doktor.

Bundan tashqari, mutaxassis oziq-ovqat tolasi-ga boy bo'lgan suli yormasidan tayyorlanadigan bo'tqa ichaklarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

"Suli juda mazali va foydali. U qonning lipid tarkibini yaxshilaydi. Bu sog'lom ovqatlanish, kuniga bir porsiya yeyishni maslahat beraman", - deydi Ginzburg.

Shuningdek, mutaxassis lavlagini ham foydali



oziq-ovqat ro'yxatiga kiritdi.

"Oziq-ovqat tolasi va pektinlar. Lavlagi organizmning ortiqcha suyuqlikni chiqarib tashlaydi, qon bosimini yaxshilaydi va qon tomirlarini elastik qiladi", - dedi u.

Shifokor lavlagi sharbatini ichishni maslahat berdi.

Internet materiallari asosida tayyorlandi.

KITOB MUTOLAASI ZAVQI

Kitob - haqiqiy murabbiy. Unda donishmandlarning bebaho hikmatli so'zlari-xazinalar mujassam. Bu haqda Mir Alisher Navoiy shunday deydi: «Kitob - beminnat ustoz. Har daqiq u bizni donishmandlarning bilim xazinasi bilan oshno eta oladi».

Darhaqiqat, kitob o'quvchi dunyoqarashini kengaytirishga, ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, tarbiya borasida ham barkamol inson qilib tarbiyalashda o'zni katta. Bu haqda mashhur o'zbek yozuvchisi Oybek quyidagicha fikr bildiradi: «Kitob bu inson orqali ko'riladigan dunyodir». Biroq, tobora shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda kitoblar o'rinda talaba-yoshlarimiz qo'lida smartfonlar ko'payib ketayotganligi balki zamona zaylidir. Bu bilan smartfonlar yoki ularning foydalanuvchilarini qoralamoqchi emasman. Biroq ma'lum bir haqiqat borki, uni rad etib bo'lmaydi. Hech bir smartfon haqiqiy o'qilgan kitobchilik zavq bermaydi. Buni haqiqiy kitob ixtosmandlarigina bilishadi.

Bu borada yurtimizda kitob bilan bog'liq masalalarga ham yetarlicha e'tibor qaratilgan. Yoshlarni komil inson ruhida tarbiyalash uchun kitob o'qish masalasi yoshlar orasida keng targ'ib qilinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilning 12-yanvar kuni «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida» farmoyishi e'lon qilindi. Shu tariqa ko'p yoshlarni kitob o'qishga qiziqishi ortdi desak, ayni haq gapni aytgan bo'lamiz. Bugungi kunda yurtimizning barcha kutubxonalar kitobxonlar bilan to'lib bormoqda desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Shu o'rinda ajoyib bir ma'lumotni keltirishni joiz deb bildik: Yapon maktablaridan birida ajoyib bir so'rovnomaga o'tkazildi: Unda quyidagicha savol o'rta qo'yildi, har bir ishtirokchidan-jahon tarixidagi eng buyuk kashfiyot nima, deb so'ralgan ekan. Mazkur so'rovnomada ishtirok etganlar o'zlari mo'jiza deb bilgan turli narsalarni tilga olishibdi,

bular quyidagicha javoblar ekan: olov, atom bombasi, dvigatel, elektrotexnika va boshqa bir necha narsalar. Ammo qoyil qolarli tomoni ishtirokchilar ichidan 6-sinf o'quvchisining javobi bo'libdi: «Eng zo'r kashfiyot - kitob» degan javobi hay'at a'zolariga ma'qul tushgan ekan. Undan nega aynan bu javobni tanlaganini so'ralishida u «Qolganlarning fikrlari ham to'g'ri, qo'shilaman, lekin kitob bo'lmasa, ularning birortasi ham ixtiro qilimmasdi-ku», deb bolalar-chamimiylik bilan javob bergan.

"Eng yaxshi sovg'a"



Har doimgi vaqtdan bir soatlar oldin ishdan chiqib, uyga qaytish maqsadida avtobusga chiqdim. Avtobusda borar ekanman bir nechta o'quvchi qizlarning o'zaro tortishuviga o'xshash gaplari meni ularni tinglashga majbur etdi. Chamasi 15-16 yashar qizlardan besh nafari bir narsalar haqida munozaraga o'xshab o'zaro gaplashishardi. Yaxshilab quloq soldim va gap nimadiligini bildim. Gap shunda ekaniki, ular dugonalarining tug'ilgan kuniga nima sovg'a qilish borasida maslahat qilishayotgan ekan. Qomati baland qizlardan biri (qizlar sardori bo'lsa kerak) «Bo'ldi, masala hal, Azizaga gul va tort olamiz» dedi. Unga qarshi ravishda qorachadan kelgan, o'rta bo'lyi, qoshlari qalin dugonasi: «Yo'q, menda boshqa taklif bor, yaxshisi pul beramiz. Shunda uning o'zi xohlagan narsasini sotib oladi» deb boshqa bir taklifni berdi. Shunda oppoqqina, yuzida chiroyli xolidan bo'lak hech narsa yo'q ko'hlikkina

qiz: «Axir o'tgan yili ham shunday qilgandik, bu yil ham pul beramizmi? Yo'q, boshqa narsa o'ylash kerak. Nafisa, sen ham qo'shilib bizga. Nuqul telefon-da bir nimalarni titkilaganing titkilagan, senda ham bir fikr bordir?» Nafisa ismli qiz sochlari o'rilgan, qaddi-qomati kelishgan, xushbichim qiz edi, dugonasi-nasining savoliga javoban: «Uni - buni qo'yinglar, hozir o'zimiz ham abitriyent bo'lsak. Biz uchun non va havodan zarur narsa - kitob. Yaxshisi, dugonam-izga kitob sovg'a qilamiz. O'sha pullarga uch xil kitob olamiz va yoniga bitta shokolad sovg'a qilamiz. Bitta badiiy asar, bitta ingliz tili darsligi va bitta pazandalik sirlari kitobidan sovg'a qilsak, har safar o'sha

kitoblar qo'lga tushishi bilan bizni yodga oladi. Qolaversa u kitoblar dunyoqarashini kengaytirishda har tomonlama yordam beradi. Har bir kitob orqa muqovasiga dugonamiz uchun eng sara tilaklarni yozib sovg'a qilamiz. Xo'sh, fikrimga qarshilar bormi?». Xuddi shu taklifni kutgandek qizlar barchasi bir ovozdan rozi bo'lishdi va kitob oladigan bo'lishdi. Manzilimga yetib kelib, uyga kirar ekanman, bugun kitob-sevar yoshlar soni ko'payib borayotganidan kursandman.

Zero, kitob tafakkur va qalb ehtiyojini qondiruvchi omil sifatida inson ruhini tarbiyalaydi, uning shaxsi shakllanishida asosiy turtki beruvchi ham aynan kitob. Kitob mutolaasi qilish jarayonida undagi ma'lumotlarni kishi nafaqat ongi va ko'zi, shuningdek, ko'nglini ham birdek uyg'otq holda tutishi bilan xotirasida saqlab qolishi mumkin. Kitob o'qishdan maqsad bu - uning mazmunini anglab yetish, unga singdirilgan ma'no-mazmunni qalban tuyish va bu orqali ma'nan ozuqaga ega bo'lishdir. Kitob mutolaasi insonda ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishiga zinhor va zinhor yo'l qo'ymaydi, shunday ekan qizlarning dugonasiga yana bir ajoyib ma'naviy do'st - kitob sovg'a qilishi meni quvontirdi. Ernest Heminguey bejizga «Kitob-dek aqli va sodiq do'st yo'q» - demagan.

Shahnoza QODIROVA,
SamDCHTI o'qituvchisi.

INTELLEKT

Muassis:
Samarqand davlat chet
tillar instituti

Bosh muharrir: Ilhomjon To'xtasinov

Tahrir hay'ati:
Fazliddin Ro'ziqulov (rais), Otabek G'aybulayev,
Shaxobiddin Ashurov, Otabek Yusupov,
Erali Rahmatov (a'zolar)

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasida 2020-yil 22-iyulda 09-15 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Gazeta «Intellect» gazetasi tahririyati kompyuterida sahifalandi. «Sherdor plus poligraf» bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: Samarqand shahri, 140100, Ulug' Tursunov ko'chas 82-uy.

Qog'oz bichimi: A-2. Adadi: 1 000 Buyurtma: № _____

Bosishga topshirish vaqti:
Soat 18:00 da. 2022-y. 1-iyul
Bosishga topshirildi: soat 19:10 da
Bahosi kelishilgan narxda
Tijorat material

Bosh muharrir
o'rinbosari:
Asilbek Abduraimov
Nashr indeksi: 5588

Maqola va xabarlarda keltirilgan
ma'lumotlar uchun muallif javobgar